

SHOYIM BO‘TAYEV HIKOYALARIDA XARAKTERLAR TASVIRI

Muydinov Muhammadzoir Zafarjon o‘g‘li
*Qo‘qon davlat pedagogika instituti erkin
tadqiqotchisi*

Annotatsiya: Maqolada Shoyim Bo‘tayevning “Abro‘k hidi”, “Xolbo‘ta qo‘rboshi” hikoyalarida xarakterlar tahlili orqali yozuvchi uslubiga xos jihatlar yoritilgan. Davr va qahramon muammolarini aks ettirishdagi Shoyim Bo‘tayev mahorati ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: mahorat, uslub, qahramon, davr muammolari, badiiyat, portret, peyzaj.

Аннотация: В статье освещаются особенности стиля писателя посредством анализа персонажей повестей Шоима Бутаева «Абрўк ҳиди» и «Холбўта кўрбоши». Показано мастерство Шоима Ботаева в отражении проблем эпохи и героя.

Ключевые слова: мастерство, стиль, герой, проблемы эпохи, художественность, портрет, пейзаж.

Annotation: The article highlights the features of the writer’s style through an analysis of the characters in Shoyim Butaev’s stories “Abruk hidi” and “Kholbuta kurboshi”. The skill of Shoyim Botaev in reflecting the problems of the era and the hero is shown.

Key words: skill, style, hero, period problems, artistry, portrait, landscape.

Ko‘p asrlik an’ana va ildizga ega bo‘lgan o‘zbek hikoyachiligi muttasil yangilanish va taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi. Bir tomondan u Sharq mumtoz adabiyoti va o‘zbek xalq og‘zaki ijodi, ikkinchi tomondan G‘arb nasri an’analarini o‘zida sintezlashtirgan holda namoyon bo‘lmoqda. Ushbu o‘rinda adabiyotshunos Islom Yoqubovning “Keyingi yillar o‘zbek romanlarida ruhiy tasvir va tahlil ancha kuchaydi. Chunki romannavislarimiz inson ma’naviy dunyosidagi tabiiy-ruhiy holat kechinmalarini ifodalashda xalq ishonch-e’tiqodlariga xos motivlarga faol murojaat etgani uchun badiiy obrazlar tushgan ruhiy vaziyat-holatlarni ishonchli ifodalishga erishmoqdalar. Buning ijtimoiy-ma’rifiy sabablari bor. Shulardan biri va eng muhimmi, mustaqillik davri erkin plyuralistik tafakkurdir. Zotan, mustaqillik bizga uzoq yillar adabiyot maydonidan ta’qib, ta’bir joiz bo‘lsa, quvg‘in qilingan mavzular: bashoratgo‘y allomalar, ruhiy olam asroridan voqif va ilohiy muloqotga kirishishga qodir shayx-valiylar, din hamda shariat peshvolari, tasavvuf allomalari obrazlarini xolis tasvirlash imkoniyatini berdi. Bu imkon poetik tasvir doirasi va ilhom ufqlarini hali tarixshunoslik ilmi ham yetarlicha tadqiq etmagan sohalar, ko‘ngil tubida pinhon yotgan mavzu va ifoda yo‘slnlari hisobiga mislsiz kengaytirdi” [1,81] degan fikrlari xarakterlidir.

Olimning bu fikrlarini Shoyim Bo‘tayevning hikoyalariga ham to‘liq tatbiq etish mumkin. Ayniqsa, yozuvchi hikoyalaridagi xarakterlar turfaligi bilan ajralib turadi. Yozuvchi ushbu xarakterlarni turli bayon usullari, turli tasviriy ifoda va vositalar bilan talqin etadi. Ma’lumki, xarakter “Badiiy ijodda individual xususiyatlar asosida har tomonlama to‘liq yaratilgan inson obrazining mukammal

turi... Badiiy adabiyotdagi xarakter nisbatan kengroq tushuncha bo‘lib, u ham real hayotiy, ham ijodkor fantaziyasidagi, idealidagi tasavvurlarni mujassamlashtirgan bo‘ladi. Shuning uchun ijodkor xarakter vositasida voqelikka munosabat bildira oladi, ya’ni uni yo inkor etadi, yo tasdiqlaydi... “xarakter har tomonlama mukammallahsgan, turli xususiyatlari aniq ko‘rinib turgan individual xususiyatlari kashf etilgan obrazdir. Har qanday obraz xarakter bo‘la olmaydi, lekin har qanday xarakter obraz sanaladi” [2,335-336].

Sh.Bo‘tayevning “Abro‘k hidi” (1991) hikoyasining qahramoni o‘ttiz besh yoshdagagi Qutbi opa Soatova bo‘lib, jamiyatda hech qanday mavqega ega bo‘lmagan, kimdir tomonidan aldanib, homila orttirib olgan yolg‘iz ayol. U hech qayerda ishlaganani bois doim och-nahor yuradi. Hikoyadagi voqealar bir yildan buyon matbaachilar yotoqxonasida istiqomat qilayotgan gazeta muharriri Ilash Eliboyev tomonidan bayon qilib beriladi. Ilash ayolga “Kalamushoy” deb laqab qo‘ygan. Chunki uning xonasi eshigini kalamush tirnayotgandek har kecha tizirlatishni qo‘ymaydi. Ayolning yuzi shunday tasvirlanadi: “Tirqishdan rangpargina yuz ko‘rindi: qoni qochgan chehra ayolnikidan ko‘ra ko‘proq qarimsoq go‘daknikiga o‘xshaydi” [3,103]. Tasvir navbati uning ko‘zlariga keladi: “Ayolning ko‘zları... alang-jalang, serharakat, besaranjom... Ular avval xona to‘ridagi derazaga qadaldi, o‘sha tomondan sirg‘alib kelib, o‘rtada haykaldek qotib turgan Ilashda to‘xtadi”. Qomati ham qisqa chizgida: “Ayol uzun yengli guldor xalat kiyib olgandi. Bo‘yi past, gavdasi nozik. Nozik va beo‘xshov“ tarzda aks etadi. Ayolning rangpar, qarimsoq yuzi uning to‘yib ovqat yemaganiga ishora. U homiladorligini yashirish uchun uzun yengli guldor xalat kiyib olgan. Uning alang-jalang, serharakat, besaranjom ko‘zları qorni ochligiga ishora. Shunday bo‘lsa-da, Qutbi opaning o‘ziga xos g‘ururi bor. Ozgina bo‘lsa ham Ilashning unga jahl qilishiga izn bermaydi. Ko‘pincha u o‘zining turmush o‘rtog‘i Sadriddin Faxriddinovning kechqurun restoranlarga olib borib, ovqatlantirishini, hatto choyni o‘rnidan turib uzatishiga ham yo‘l qo‘ymasligini oshib-toshib so‘zlaydi. U erining saxiyligini, ministrlar, bosh direktorlar bilan bordi-keldi qilib turishlarini so‘zlaydi. Shu asnoda “Ayol so‘zlay-so‘zlay, o‘zini sipo tutishga qanchalik harakat qilmasin, qo‘llari ixtiyorsiz ravishda yelim xaltaga borib-kelaveradi. Ilash chaqilgan yong‘oqlardan ajratib qo‘yayotgan mag‘izlarni ham bitta qo‘ymay peshma-pesh yeb turardi. Ilash go‘yo bechorahol suxandon bir ertakchining aytib berayotgan yangi ertagi uchun so‘ylayotgandek ko‘rinardi. Uning so‘z qo‘shmay o‘tirishi ham shundan dalolat berayotgandek edi. Biroq ayol aksariyat ertakchilar kabi so‘zlarim qanday ta’sir qilyapti ekan, degandek tinglovchisi tomonga qarab qo‘ymasdi, chunki tinglovchi uni mutloq qiziqtirmasdi ham...” Ayolning aytishicha, o‘rtoq Faxriddinov chet elga kamandirovkaga ketgan. Ba’zan dam olish kunlari qishlog‘iga borib kelgan Ilashga

ayol Faxriddinov kelib ketganligini, ular borgan restoranlardagi ovqatlar yaxshi emasligi bois og‘ziga olmaganligini so‘zlaydi. Shundan so‘ng Ilash ayasi berib yuborgan dastavezni o‘rtaga to‘kadi. “Restoranlarning ovqatini uncha xushlamagan ayol chang-chung ilashgan mayiz-u jiydalardan bo‘yin tovlamasdan, qoq nonlarni choyga bo‘ktirib timshayib tanavvul qila boshlaydi” [3,110]. Qutbi opaning quyidagicha “falsafasi” bor: “Lekin... ayol kishining toshi yengil bo‘ladi, ukajon, shunchalik yengilki... – u nima deyarini bilmay bir zum tin oldi. – Shunchalik yengilki... ”puf” desangiz uchib ketib kattakon quyun hosil qiladi...” [3,112]. So‘ng ayol ilmiy ish qilayotgan eri o‘rtoq Faxriddinovning “O‘zingizga qarang, yog‘li-yog‘li ovqatlardan yeb yuring deb har safar tayinlashini, o‘zining esa erinchoqligi tutishini” aytadi. Gohi u Ilashdan besh-o‘n so‘m qarz olib, o‘n baravar qilib qaytarishga va’da berar, ammo bir tiyin ham qaytarmaydi. Ilash esa ko‘cha-ko‘yda ovqatlanganida ham yelim xaltani to‘ldirib qo‘yishini o‘zining qandaydir burchi deb bilardi. Xalta bo‘s sh qolgan kezлari esa ayolning ko‘zлari mo‘ltirab, lablari gezarib, so‘zlashga ham hafsalasi kelmay qolganini ko‘rib o‘zini gunohkor his etadi.

Ilash esa har safar xonasiga ayolni kiritmaslikka ahd qilar, uning xonasidan haydab solishga o‘z-o‘ziga va’da berar, lekin bir yillik hamsuhbati ko‘nglini ranjitgisi kelmasdi.

Ana shunday kunlarning birida ayol xonasiga kirmay qo‘yadi. Shunda Qutbi opaning xonasi eshigini taqillatadi. Yozuvchi bu holni shunday tasvirlaydi:

“Eshikni sekin tiqillatdi. Javob yo‘q.

Qattiqroq urdi... Javob yo‘q.

So‘ng mushtlay boshladи. Xona karaxt edi – uyg‘onmasdi; xona gung edi – eshitmasdi; xona loqayd edi – e’tibor bermasdi...” [3,119].

Ilash nihoyat Vasila ismli tanishidan Qutbi opani bexosdan to‘lg‘oq tutib qonga belangan holda zambilga solib kecha yarim tunda kasalxonaga olib ketishganini eshitadi. Ilash undan ayoling hech kimi, hatto eri ham yo‘qligini bilib oladi.

Ilash o‘sha kuni bozorga boradi va bir dasta gulning ichiga Abro‘k dan uch-to‘rt dona qo‘shib sotib oladi. Yozuvchi Abro‘k hidi tasviri orqali insoniy mehrning har narsadan ulug‘ ekanligini quyidagicha ifodalaydi:

“Abro‘k hidi... Ilashning qo‘lidagi gullar chiroyli bo‘lgani bilan hidsiz, lekin Abro‘k dan taralayotgan xush is barchaga tatir edi.

O‘z ishidan Ilashning boshi ko‘kka yetdi.

“Opaning ham odamlari borligini, uni ham qadrlashlarini do‘xtirlar, yon-verida yotganlar ko‘rib bilib qo‘yishsin-da”, derdi o‘ziga-o‘zi” [3,122].

Ilash kasalxonaning bosh vrachidan Qutbixon opaning bolasini qornida o‘lib qolganini, yorib olayotganlarida o‘zi ham juda ham nimjon, kamquvvat ekani bois

PROFESSOR RAHMATULLA BARAKAYEVNING 70 YILLIGI

dosh berolmay o‘lganligini eshitadi. Shunda Ilash holati quyidagicha tasvirlanadi: “Ilashning ko‘z oldiga lop etib yelim xalta keldi. Chang-chung ilashgan mayiz-u turshaklar, qotgan non... Shuniyam kechgacha kutib o‘tirarkan-da, bechora...” [3,123]

Ilash tashqariga chiqarkan hech narsa o‘zgarmaganligini, hamma narsa joy-joyida, tuynuk oldida kasalxonaga kirmoqchi bo‘lgan ayollar yana to‘planib qolganligini ko‘radi. Lekin Ilash holati, qarashlari o‘zgargan edi: “U suyanchig‘idan ayrilib, tentirab qolgan yetimday his etdi o‘zini. Ko‘ksida og‘ir bir og‘riq qo‘zg‘aldi.

Guldasta joyida turgan ekan. Qo‘liga oldi. Nariroqdagi o‘rindiqqa borib o‘tirdi. U o‘zini aybdor his qilardi. Qutbixon opa mening ko‘nglimdan neki o‘tgan bo‘lsa uch xona narida yotib ham sezgan, degan fikr Ilashning shuuriga mahkam o‘rnashib qolayotgandi. “Ha, sezgan”, derdi u ezilib. Chunki o‘zi uchun, or-nomusi uchun o‘ta ehtiyyotkor bo‘lgan bu ayol ming chaqirim yiroqda turib ham sezishi turgan gap edi...” [3,124].

Yozuvchi kimsasiz homilador ayol fojiasini tasvirlash orqali o‘zgalar taqdiriga loqaydlik, beparvolik, mehrsizlik illatini qoralaydi. Har bir shaxsni yashashdan maqsadi haqida o‘ylashga, fikrlashga chaqiradi. Ilash guldasta ichiga yondaftarchasidan bir varoq olib “O‘rtoq Soatovaga! Bu dunyoda yaxshiliklar qilolmagan Sadriddin Faxriddinovdan...” deb yozib qo‘shib qo‘yarkan, insonni insonga bo‘lgan beminnat, samimi yaxshiligi, mehr-oqibatini yoqimli Abro‘k hidiga qiyoslaydi. Hikoya quyidagi tasvir bilan yakunlanadi: “Ilash tashqariga chiqdi: hammayoqni Abro‘k hidi tutib ketgandi. Tug‘ruqxona hovlisidagi daraxtlar ham, o‘simliklar ham tevarak-atrofga yakkash Abro‘k ning xush bo‘yini taratayotgandek edi”[3,125]. Ushbu o‘rinda professor U.Normatovning “Zulfiya Qurolboy qiziga ochiq xat”idagi quyidagi so‘zlarini eslash o‘rinlidir: “Bilamizki, o‘tgan asrning 60-70-yillaridan nasrda “shafqatsiz realizm” degan oqim paydo bo‘lgan, haqgo‘y, jasur adiblar o‘z asarlarida hayot mashaqqatlarini, xususan, qishloq kishilarining ayanchli turmushini butun murakkabligi, ziddiyatlari bilan shafqatsizlarcha halol, haqqoniy aks ettirishga jur’at etgan edilar. Shu ruhdagi asarlar tufayli so‘z san’ati, so‘z ustalarining el-yurt oldidagi obro‘-e’tibori, ijtimoiy mavqeyi benihoya yuksaklikka ko‘tarilgan edi. Tabiiyki, bu tur asarlar yuqori doiralarga aslo ma’qul tushmagani, ular tevaragida betinim fitna, fisq-u fasodlar uyushtirilganiga o‘zimiz guvohmiz. Kimdir topib aytgan: haq gapga,adolatli tanqidga toqat qilolmaydigan jamiyatning kelajagi yo‘q. Tarix buni to‘la tasdiqladi. Mangulikka dahldor mustaqil mamlakatimizda haq so‘zning qadri baland, haqiqatni aytish, yozish imkonи keng. Bundan ilhomlangan navqiron adabiy avlod “shafqatsiz realizm” an’analarini yangi sharoitda o‘zgacha tarzda davom ettirayotirlar. Bu yo‘lda, ayniqsa, Shoyim Bo‘tayev samarali izlanishlar olib boryapti”[4,481].

Yozuvchi tilimizda unutilayotgan dastavez so‘zini o‘rinli qo‘llab, yana muomalaga olib kiradi. Dastavez – biron joyga quruq qo‘l bilan bormaslik uchun olib boriladigan narsa.

“Xolbo‘ta qo‘rboshi”(1987) hikoyasi o‘quvchini XX asrning 20-30-yillari voqeligiga olib kiradi. Asar voqealari bizni milliy ozodlik uchun kurashgan Xolbo‘ta qo‘rboshining achchiq taqdiri, bir necha soatlik hayoti bilan tanishtiradi. Xolbo‘ta qo‘rboshi xarakteri uchun xos jihatlar millatparvarlik, qat’iyatlilik, kamsuqumlilik, mehr-oqibatlilik xos. Uning ziddi bo‘lgan Saidmurod pansodga esa xudbinlik, sotqinlik, shafqatsizlik xosdir.

Xolbo‘ta qo‘rboshi to‘rt yigit hamda Saidmurod pansod bilan erta tong tumanida tog‘ sari yo‘lga chiqqan. U qizil askarlar bilan bo‘lgan janglarida ko‘p talofat yeb, yigitlaridan ajralgan. Bir vaqtlar uning soyasiga salom bergen Zokir lakot va Hayit badallar ham sotqinlik qilib qizillar tomoniga o‘tgan. Saidmurod Zokir lakotni bu qilmishi uchun o‘ldirmoqchi bo‘lganida Xolbo‘ta qo‘rboshi uni bu yo‘ldan qaytargan. Umidsiz qo‘rboshi holati “Xolbo‘taning ko‘zlar qizarib shishgan, betinim o‘ylar ta’sirida oeshonasi g‘ijimlanib–tirishib ketgan, atrofni qoplagan qora, qop-qora tuman omad undan yuz o‘girganligidan nishon berayotgandek tuyulardi”[3,40]. Akademik M.Qo‘shtonov ta’kidlaganidek, “Xarakter terminiga ikki xil ma’no berish tendensiyasi mavjud: Tor va keng. Tor ma’nodagi xarakter – bu bir shaxsni ikkinchi bir shaxsdan ajratib turadigan axloqiy va psixologik belgilar majmuasidan iboratdir... Keng ma’nodagi badiiy xarakter – bu individual belgilarni ham o‘z ichiga olgan holda ma’lum bir ijtimoiy sharoitda paydo bo‘lgan, ijtimoiy ma’no kasb etgan shaxs iroda yo‘nalishi va bu iroda yo‘nalishning asardagi badiiy ifodasidan iboratdir” [5,5-6]. Biz Xolbo‘ta qo‘rboshi talqinida ana shu keng va tor ma’nodagi xarakter xususiyatlarini ko‘ramiz. Saidmurod pansod ham xiyonat yo‘liga kiradi. U qo‘rboshining qoni evaziga qizillar ehtiromini qozonishni o‘yay boshlaydi. Xolbo‘ta esa o‘z yigitlariga javob berib yuborishning yo‘lini izlab, Saidmurodga maslahat soladi. Saidmurod esa uni qizillarga sotilib, ularni tutib bermoqchi ekanlikda ayblaydi va otib o‘ldiradi. Qo‘rboshi joni uzilar ekan uni qo‘yib yuborishni yigitlarga buyuradi[8, 84-91]. Yozuvchi hikoyada badiiy detallardan mohirlik bilan foydalanadi. Masalan, mazkur fojia “oq nayzadek lojuvard osmonga sanchilib turgan qoya osti”da ro‘y beradi. Oq nayza qoya bizning bo‘ysunmas bobolarimiz, kuchimizga ishora. Ana shu cho‘qqilar Xolbo‘taga o‘xshagan qo‘rboshilar o‘limi bilan kunfayakun bo‘ladi[7,196-200]. Hikoyadagi Xolbo‘ta qo‘rboshining jon berish jarayoni tasvirida yurting yana qariyb bir asrlik mustamlaka ostida qolishiga ishora beradi: “U so‘nib borayotgan ko‘zini osmonga tikdi: uvada bulutlar, quyoshning ko‘k toqidagi bir tutam nuri aralash-quralash gir-gir aylandi, aylanaverdi... Cho‘qqilar yer bilan bitta

bo‘ldi, kunfayakun bo‘ldi, yer kanoralari-yu sarhadlari ayqash-uyqash bo‘lib qorishib, ostin-ustunlashib chashmi nigoroniga jamlanib keldi, so‘ng hamma yoqni zulmat qopladi”[3,47]. Adabiyotshunos A.Sabirdinovning O.Muxtor ijodi haqida ushbu so‘zлari Shoim Bo‘tayev asarlariga xosdir: “Yozuvchi ta’sir manbalariga ko‘rko‘rona taqlid qilish yo‘lidan bormaydi. Ularga yangicha yondashib, betakror qiyofa va obrazlar, milliy xarakterlar yaratishga erishadi. Halollik va xiyonat, muhabbat va nafrat, boylik va kambag‘allik, baxt va baxtsizlik, o‘tmish va bugun, hayot va o‘lim tushunchalari bor ziddiyatlari, qarama-qarshiliklari bilan goh falsafiy, goh xalqona ifodalarda, goh hayotiy manzaralarda yoritiladi. Xayol bilan hayot, fantastika bilan reallik o‘ziga xos mushtaraklik kasb etdi”[6,91].

Yigitlar tomonidan qo‘yib yuborilgan Saidmurod qo‘rboshi ko‘milgan joyga qizil askarlarni boshlab keladi. So‘ng ma’lum bo‘ladiki, yigitlar qo‘rboshining murdasini qazib olib, o‘rniga o‘q ilma-teshik qilib tashlagan choponi va uchi qayrilma etigini ko‘mib ketadilar. Hikoyada yozuvchi sotqinlik, xiyonatkorlik albatta jazolanishini ana shunday talqin etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ёқубов И. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси. –Тошкент: “Nurafshon bussines”, 2021.
2. Хотамов, Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг Русча-ўзбекча изоҳли луғати.– Тошкент: Ўқитувчи, 1979.
3. Бўтаев Ш. Авлиёнинг йўли. Ҳикоялар. – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2018.
4. Норматов У. Танланган асарлар. -: «SHARQ» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2021.
5. Кўшжонов М. Ойбек маҳорати. – Тошкент: Бадиий адабиёт нашриёти, 1965.
6. Сабирдинов А. Маънавият ва маърифат чашмалари. – Тошкент: «Akademnashr», 2016.
7. Sabirdinov A. Interpretation of characters ib Utkir Hoshimov’s story “Yanga”. International journal of multicultural and multireligious understanding. 2021; 8(5): 196-200.
8. Sabirdinov A. Interpretation of the banned period in the stories of Naim Karim. Asian journal of Multidimensional Research(AJMR) //https://tarj.in. Vol.10, Isseu 11, November 2021. Impact Factor: SJIF 2021=7.699.ISSN 2278-4853.P.84-91